

Ilmning kelajagi – yoshlarning qo‘lida

Joriy yilining 28 yanvarida Toshkent shahrida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, akademik B.S.Yuldashev bilan yosh olimlar o‘rtasida ochiq muloqot bo‘lib o‘tdi. Unda FA Navoiy bo‘limi yosh xodimlari ham qatnashdi.





Tadbir davomida B.Yuldashev soʻnggi yillarda Respublikada fan va taʼlim sohasida yuz berayotgan oʻzgarishlar, olimlar va oʻqituvchilarga, hususan, ularni moddiy ragʻbatlantirishga, samarali faoliyat olib borish uchun shart-sharoitlarni yaxshilashga va jamoatchilik nufuzini oshirishga kuchaygan eʼtibor haqida gapirdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga yoʻllagan Murojaatnomasida qoʻyilgan vazifalar shuni koʻrsatmoqdaki, bu yoʻnalishdagi ishlar nafaqat davom ettirilibgina qolmay, balki uning ustuvor yoʻnalishlaridan biri ekanligini maʼlum boʻlmoqda. Xususan, “biz Oʻzbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qoʻygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-maʼrifat va innovasiya bilan erisha olamiz” deb taʼkidlagan. Joriy yilda matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yoʻnalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi, shuningdek, ilm-fan sohasida fundamental va innovasion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablagʻlarini ajratish mexanizmini tubdan qayta koʻrib chiqiladi.

Bexzod Sodiqovich yoshlar gʻayratga toʻla, ular yaratilgan sharoit va

imkoniyatlardan unumli foydalanishlari, berilgan ishonch uchun javobgarlikni his qilishlari kerakligini ta'kidladi, chunki ilm-fan va mamlaktning kelajagi ularning qo'lida. O'z hayotlarini ilm-fan bilan bog'lashga qaror qilgan yosh yigit-qizlar o'zlari ustuda tinimsiz ishlashlari chet tillarini o'rganishlari va o'z tadqiqotlarida eng yangi usul va texnologiyalardan foydalanishlari kerakligini aytib o'tdi. U suvni tozalash va zarasizlantirish, tuproqning sho'rlanishi va boshqa muammolarni hal etish kabi dolzarb masalalarga to'xtaldi.

Yig'ilishda shuningdek, muassasalarda o'tkaziladigan ilmiy-texnik seminarlar sonini ko'paytirish zarurligi haqida so'z yuritildi, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish va ularning natijalarini tijoratlashtirish uchun qanday choralar ko'rilganligi qayd etildi. Ochiq muloqotda yosh olimlar imtiyozli turar joy olish, laboratoriya jixozlarini yangilash, xorijiy ilmiy jurnallarda maqolalar nashr etish kabi masalalarni ko'tarildi.

Fevzi ISTABLAEV,

bo'limning matbuot kotibi.